



GENDER EQUALITY: WOMEN ARE ACTIVE ON ALL FRONTS

G'.A. Qurbonaliyev

Ministry of internal affairs academy full-time education 1st course of study 108th group cadet

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10893324>

ARTICLE INFO

Received: 22th March 2024

Accepted: 28th March 2024

Online: 29th March 2024

KEYWORDS

Women, society, gender, gender equality, prosperous family, harmonious generation, strategy.

ABSTRACT

In order to promote gender equality, the article discusses the ongoing reforms and the creation of women in the social, economic and political spheres in society conditions have been studied.

GENDER TENGLIK: AYOLLAR HAR JABHADA FAOL

G'.A. Qurbonaliyev

Ichki ishlar vazirligi akademiyasi kunduzgi ta'lim 1-o'quv kursi
108-guruh kursanti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10893324>

ARTICLE INFO

Received: 22th March 2024

Accepted: 28th March 2024

Online: 29th March 2024

KEYWORDS

Xotin-qizlar, jamiyat, gender, gender tenglik, farovon oila, barkamol avlod, strategiya.

ABSTRACT

Maqolada gender tenglikni ta'minlash maqsadida, ayollarning jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalarida faolligini oshirish borasidagi amalga oshirilayotgan islohotlar hamda yaratilayotgan shart-sharoitlar o'rganilgan.

Bugungi kunda mamlakatimizda xotin-qizlar huquq va erkinliklarini munosib himoya qilish, ularning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy sohalaridagi faolligini oshirish va tadbirkorlik faoliyatini yanada takomillashtirish hamda ommalashtirish borasida ko'plab maqsadli ishlar amalga oshirilmoqda.

Davlat hokimiyatini oliy organlarida, shuningdek, tuman, shahar hokimi, vazir, elchi kabi ma'suliyatli lavozimlarga ayollarning tayinlanishi ham ularga bo'lgan ishonchning ortib borayotganidan dalolat beradi. Ayollarning mamlakatimiz hayotiga daxldor qarorlar qabul qilishdagi o'rni sezilarli darajada ortganini, ularning boshqaruv sohasidagi ulushi 33 foizga, tadbirkorlik sohasida 35 foizga, siyosiy partiyalarda 44 foizga, oliy ta'limda esa 46 foizga yetganidan ko'rishimiz mumkin. O'zbekiston tarixida ilk marotaba parlamentda xotin-qizlar soni BMT tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos darajaga yetib, parlamentdagi xotin-qizlar soni qariyb 32 foizga yetdi va dunyodagi 190 ta parlament orasida 37-o'ringa ko'tarildi. Davlat



va jamoat tashkilotlari tizimida 1 300 nafardan ortiq, shu jumladan vazirlik va idoralarda 45 nafar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi hamda Vazirlar Mahkamasida 39 nafar, mahalliy davlat hokimiyati organlarida 207 nafar ayol rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritmoqda. Shuni ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga 2019-yilda bo'lib o'tgan saylovlarda ro'yxatdan o'tgan 21 435 000 nafar saylovchining qariyb 50 foizi yoki 10 825 641 nafari xotin-qizlardir. Ushbu saylovlarda ko'rsatilgan nomzodlarning 41 foizi xotin-qizlar bo'lib, ularning soni O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksida belgilangan 30 foizlik kvotadan ortdi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlarining 32 foizi, Senati a'zolarining hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, mahalliy Kengashlar deputatlarining qariyb 25 foizini xotin-qizlar tashkil etmoqda. Bunga sabab qilib esa, O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi va O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi a'zolarining 49 foizini, O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi a'zolarining 46 foizini, O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi va O'zbekiston Ekologik partiya a'zolarining 41 foizini xotin-qizlar tashkil qilishini bemalol aytishimiz mumkin.

So'nggi yillarda amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar natijasida O'zbekiston Respublikasida jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida xotin-qizlar hamda erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlash, xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonliklardan himoya qilish masalalari bo'yicha mustahkam huquqiy asos qilib, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati tomonidan "2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi" 2021-yil 28-may kuni SQ-297-IV-sonli qaror qabul qilindi. Ushbu strategiyasining asosiy maqsadi — irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'iy nazar xotin-qizlar va erkaklarning haqiqiy tengligini ta'minlashdan iborat. Mamlakatimizda qabul qilinayotgan har bir normativ-huquqiy hujjatlar xotin-qizlar hamda erkaklarga teng huquq va majburiyatlar yaratishini ta'minlash maqsadida, ularni gender huquqiy ekspertizadan o'tkazish amalga oshirilmoqda.

Xotin-qizlarni jamiyat hayotidagi o'rni va nufuzini yanada oshirish maqsadida Prezidentimiz tomonidan 2022-yil 1-mart kuni "Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniyatlarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoni imzolandi.

Farmonda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish, oila institutini mustaqamlash va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari belgilangan.

Ushbu hujjat bilan xotin-qizlarning jamiyatdagi ro'lini oshirish maqsadida gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyalari, hamda ularning hududiy komissiyalari tashkil etildi.

Shuningdek, oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshirish bo'yicha vakolatli davlat boshqaruv organi- Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi va uning hududiy bo'linmalari tashkil etildi. Ushbu qo'mitaning raisi Bosh vazir o'rinbosari qilib belgilanishi, ularga bildirilayotgan ishonch hamda ma'suliyatni anglatadi.



Ushbu farmon asosida, fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlarida xotin-qizlar faoli lavozimi ta'sis etildi. Bu o'z navbatida hokimiyatning eng quyi bo'g'inida tashkil etilib, mahallalarda xotin-qizlarni faolligini ta'minlash, ular orasidagi ishsizlarni muayyan hunar to'garaklarga jalb qilish hamda ularga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish kabi muhim va dolzarb ishlarni amalga oshirmoqda.

Hozirgi kunda amalga oshirilayotgan yangi tashabbuslar natijasida, ayollarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, ularni taziyiq va zo'ravonlikdan himoya qilishga oid qonun hujjatlarining ijrosini nazorat qiluvchi Bosh prokuraturada alohida boshqarma tashkil etildi. Ayollarni reabilizatsiya qilish va moslashtirish markazlari va ularning hududiy bo'linmalari tashkil etildi. Ayollarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha maxsus jamg'armalar tashkil etilib, unga har yili davlat budjeti hisobidan 300 million so'm pul mablag'lari ajratiladigan bo'ldi.

Mamlakatimiz rahbari tomonidan Xalqaro xotin-qizlar bayrami musosabati bilan o'tkazilgan tantanali marosimdagi so'zlagan nutqida "Bitta qiz bolani o'qitsangiz – butun oilani o'qitgan bo'lasiz", deb bejizga ta'kidlamaganlar.

Ayniqsa, shu borada 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Xotin-qizlar ta'limini qo'llab quvvatlash milliy dasturi qabul qilinganini alohida ta'kidlash lozim. Shu asosida, oliy ta'lim muassasalarida, texnikum va kollejlarda sirtqi va kechki ta'limda o'qiyotgan xotin-qizlarga 7 yilgacha foizsiz kreditlar berish, oliy ta'lim magistraturasida o'qiyotgan xotin-qizlarga esa kontrakt pullari to'liq davlat budjetidan to'lanishi, ulaga ta'lim sohasida kech imkoniyatlarni ochib berdi. Endilikda xorijiy oliy ta'lim muassasalariga bakalavriyat uchun – 50 nafar, magistratura uchun – 10 nafar xotin-qizlarga har o'quv yilida "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali qo'shimcha grantlar ajratildi.

Yurtimizda xotin-qizlarni ilm-fan sohasiga jalb qilishda sezilarli natijalarga erishildi. Respublikamizda bugungi kunda 6 ta akademik, 700 ta fan doktori, 4780 ta fan nomzodi hamda 200 nafardan ortiq falsafa doktori darajasidagi ayollar o'z ilmiy faoliyatini turli sohalarda amalga oshirmoqdalar.

Ochig'ini aytadigan bo'lsam, xotin-qizlarning ilm olishiga ko'mak berish maqsadida joriy etilayotgan bunday imtiyozlar shu paytgacha mamlakatimiz tarixida kuzatilmagan. Dunyo hamjamiyatining siyosatini kuzatadigan bo'lsam, hech qaysi davlatda ayollarga bunchalar imtiyozlar yaratilmagan.

Ammo, ushbu yutuqlarga qaramay ta'lim sohasida bir qancha muammolarimiz ham mavjud. O'rganishlar natijasida shu ma'lum bo'ldiki, ta'limda xotin-qizlar va erkaklar o'rtasida keskin tafovutlar kuzatilib, bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim o'qituvchilarining 70 foizdan ortig'ini ayollar tashkil etmoqda ekan. Shuningdek, ta'limning pedagogika va gumanitar fanlar (filologiya, pedagogika, psixologiya, madaniyat va san'at) yo'nalishlarida tahsil olayotgan xotin-qizlar ulushi 68 foizni tashkil etsa, muhandis-texnik (axborot texnologiyalari, energetika, injeneriya) va huquqshunoslik sohalorida ularning ulushi hamon kamligicha (24 foiz) qolmoqda.

Xulosa qiladigan bolsak, O'zbekistonda gender tenglikni ta'minlash bo'yicha xalqaro tajribani o'rganish asosida quyidagilarni taklif qilish mumkin:



- Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni yaratishga qaratilgan Xalqaro mehnat tashkiloti konvensiyalarining O'zbekiston Respublikasi milliy manfaatlariga mos keladigan maqbul normalarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish;
- Aholini tashvishga solayotgan muammolarni rahbarlik lavozimidagi xotin-qizlar tomonidan hududga chiqib hal qilish amaliyotini kengaytirish.
- Ayollar tadbirkorligini faollashtirish maqsadida, tadbirkorlik sohasida yuqori natijalarga erishgan ishbiarmon ayollar bilan uchrashuvlar hamda targ'ibot ishlarini qilgan holda ularda ushbu faoliyatga qiziqish hamda ishtiyoq uyg'atish;
- Xotin-qizlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish hamda sport bilan shug'ullanishi uchun hududlarda alohida xotin-qizlar sport majmualari tashkil etish;
- Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari, umumta'lim maktablari o'qituvchilarining mamlakatda bo'layotgan siyosiy o'zgarishlar jarayonidagi gender siyosatini targ'ib qilishga oid o'quvlar tashkil qilish;
- Tazyiq va zo'ravonlik holati qayd etilgan oilalar, ish joylari, jazoni ijro etish muassasalari va boshqa obyektlarning hisobini yuritish, shuningdek tazyiq va zo'ravonlik sodir etishga moyil bo'lgan yoki ularni sodir etgan g'ayriijtimoiy xulq-atvorga ega shaxslarni aniqlash hamda ular bilan profilaktik ishlar o'tkazish.
- Xotin-qizlarga davlat tomonidan ajratilayotgan grantlar sonini oshirish va ularni o'qitishni jahon tajribasiga tayangan hamda milliy urf-odatlariga muvofiq tashkil etish orqali ularning ilmiy salohiyatlarini oshirish;
- Iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash, ularning qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirish va rahbarlik lavozimlariga tayyorlashni tizimlashtirish va yaqin kelajakka mo'ljallangan strategik vazifalarni belgilash;
- Ma'muriy va Jinoyat huquqiga yangi norma "Gender tenglik to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish" ni kiritish bo'yicha masalani ko'rish;
- Gender tenglikning buzulishiga doir huquqbuzarliklarga nisbatan javobgarlikni kuchaytirish;

References:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari – Toshkent: O'zbekiston, 2021. –B. 406
2. "Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi O'zbekiston respublikasi Prezidentining PF-81-sonli farmoni 01.03.2022-yilda qabul qilingan. (<https://lex.uz/ru/docs/-5884143>)
3. "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-87-sonli farmoni 07.03.2022-yilda qabul qilingan. (<https://lex.uz/uz/docs/-5899498>)
4. "2030-yilga qadar O'zbekiston respublikasida gender tebliglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida" gi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining SQ-297-IV-sonli qarori 28.05.2021-yilda qabul qilingan. (<https://lex.uz/docs/-5466673>)



5. “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining O'RQ-562-sonli qonuni 02.09.2019-yilda qabul qilingan. (<https://lex.uz/docs/-4494849>)
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil mart oyidagi “Xalqaro xotin-qizlar bayrami” munosabati bilan so'zlagan nutqi. (<https://daryo.uz/2022/03/07/shavkat-mirziyoyevning-8-mart-xalqaro-xotin-qizlar-kuni-munosabati-bilan-otkazilgan-marosimda-sozlagan-nutqi>)
7. “Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-146-sonli qarori 2022-yil 1-martda qabul qilingan. (<https://lex.uz/docs/-5884084>)